

«Ipoteka bank» ATIB mijozlari bo'lgan yuridik shaxslarga «Ipoteka bank» ATIB Internet-bank tizimidan foydalangan holda onlayn rejimda muddatli bank depozitiga pul mablag'larini joylashtirish xizmatini taqdim etish bo'yicha

Ommaviy oferta shartnomasi

Mazkur hujjat «Ipoteka-bank» aksiyadorlik tijorat ipoteka bankining (keyingi o'rinlarda - Bank) rasmiy ommaviy ofertasi bo'lib, unga ko'ra yuridik shaxslar «Ipoteka – bank» ATIB Internet - banking tizimidan foydalangan holda muddatli bank depozitiga (keyingi o'rinlarda - Depozit) pul mablag'larini onlayn tarzda joylashtirish bo'yicha Ommaviy oferta shartnomasini (keyingi o'rinlarda - Shartnoma) tuzishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 367–modda, 369-modda 2-qism va 370-moddasiga muvofiq, quyida ko'rsatilgan shartlarni, xizmat uchun to'lovlarni qabul qiladigan hamda ushbu ofertani aksept qilayotgan yuridik shaxs Mijozga, Mijoz va Bank esa birgalikda - Shartnoma tomonlariga aylanadi.

Yuridik shaxs mazkur shartnomada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirgan paytdan boshlab Shartnoma tuzilgan deb hisoblanib, qo'shilish shartlari bo'yicha hech qanday istisnolarsiz yoki cheklovlersiz kuchga kiradi.

Yuqorida aytilganlar bilan bog'liq holda, ushbu ofertaning matni bilan yaxshilab tanishib chiqing. Agar Siz ofertaning biror bandida keltirilgan shartlar va qoidalariga rozi bo'lmasangiz, muddatli onlayn depozitga pul mablag'larini joylashtirish xizmatidan foydalanishni o'zingizni cheklab turish talab etiladi.

1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

1.1. **Muddatli onlayn depozitga pul mablag'larini joylashtirish xizmati** (keyingi o'rinlarda «xizmat» deb ataladi) – Mijozlarga Bankning Internet-banking tizimidan foydalangan holda pul mablag'larini «so'm» milliy valyutasida va AQSh dollarida muddatli bank depozitiga masofadan turib onlayn rejimida naqd pulsiz joylashtirish imkonini beruvchi xizmat.

1.2. **Bankning Internet-banking tizimi** (keyingi o'rinlarda «tizim» deb ataladi) - Mijozga o'z hisobvarag'idan muddatli depozitga pul mablag'larini onlayn rejimida o'tkazishga imkon beradigan avtomatlashtirilgan elektron tizim.

1.3. **Mijoz** - «Ipoteka-bank» ATIB yuridik shaxsi.

1.4. **Bank mahsuloti** - Mijozga ma'lum bir ketma-ketlikda taqdim etiladigan va uning ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan o'zaro bog'liq xizmat va operatsiyalar jamlanmasidir.

1.5. **Bank xizmati** - Bank operatsiyasining natijasi, ya'ni Mijoz tomonidan e'lon qilingan ehtiyojni qondirishdan iborat bo'lgan Bank operatsiyasining natijasi yoki foydali ta'siri (Bank xodimlarining maqsadga yo'naltirilgan mehnat faoliyati) (kredit, hisob-kitob va kassa xizmatlari, kafolatlar, qimmatli qog'ozlarni sotib olish/sotish, chet el valyutasi va boshqalar).

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Bank mazkur Shartnomaga muvofiq Mijozga tizimdan foydalangan holda muddatli onlayn depozitga pul mablag'larini joylashtirish imkoniyatini beradi, Bank esa Mijozdan olingan mablag'larni tizimdan foydalangan holda onlayn rejimda qabul qilish va depozit mablag'lariga mazkur Shartnomada nazarda tutilgan shartlar va tartibda foizlar to'lagan holda depozit mablag'larini qaytarish majburiyatini oladi.

3. AKSEPT TARTIBI

3.1. Shartnoma shartlari standart shaklda belgilanib, ushbu Shartnomaning aksepti Mijozni tizimdan foydalangan holda pul mablag'larini joylashtirishi ushbu Shartnoma shartlariga o'z roziligini anglatadi. Shartnoma pul mablag'lari joylashtirilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

3.2. Mijoz Shartnoma shartlariga rozi bo'lmagan taqdirda, xizmatdan foydalanishni rad qilishi kerak.

3.3. Aksept Mijozga Depozitni masofadan turib ochish va Mijozning mablag'larini unga o'tkazishdan ifodalanadi.

3.4. Ushbu Shartnomani akseptlash orqali Mijoz ushbu xizmatdan foydalanish uchun ushbu shartnomada va bank tariflarida belgilangan xizmatlar ko'rsatish tartibi va shartlarini o'rganib chiqqanligini tasdiqlaydi, ular bilan rozi bo'ladi va ularni o'zi uchun majburiy deb tan oladi.

4. SHARTNOMA SHARTLARI

- 4.1. Depozit faqat naqd pulsiz shaklda pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.
- 4.2. Foiz stavkasi: Mijoz tanlagan Bank mahsulotiga muvofiq.
- 4.3. Depozit muddati: Mijoz tanlagan Bank mahsulotiga muvofiq.
- 4.4. Muddatli depozit hisobvarag'ini ochish uchun minimal summa: Mijoz tanlagan Bank mahsulotiga muvofiq.
- 4.5. Qo'shimcha badallar (depozit summasini oshirish): Mijoz tanlagan Bank mahsulotiga muvofiq.
- 4.6. Qisman naqd pul yechib olish: Mijoz tanlagan Bank mahsulotiga muvofiq.
- 4.7. Foizlarni kapitallashtirish: Mijoz tanlagan Bank mahsulotiga muvofiq.
- 4.8. Muddatidan oldin qaytarish shartlari: Mijoz tanlagan Bank mahsulotiga muvofiq.
- 4.9. Muddatli depozit hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'lari o'sha kuniyoq o'tkaziladi, dam olish/bayram kunlari bundan mustasno. Dam olish/ bayram kunlari qabul qilingan taqdirda, pul mablag'lari dam olish/bayram kunidan keyingi birinchi ish kunida o'tkaziladi.
- 4.10. Depozit muddati tugagandan so'ng, pul mablag'lari faqat naqd pulsiz shaklda Bankda ochilgan joriy hisobvarag'iga keyingi operatsion Bank ish kunidan kechiktirmay o'tkaziladi.
- 4.11. Muddatli depozit muddati tugagandan so'ng, mazkur Shartnoma muddatini uzaytirish ko'zda tutilmagan.
- 4.12. Depozit muddati tugagandan so'ng, depozit summasi avtomatik ravishda Mijozning hisobvarag'iga o'tkaziladi.

5. FOIZLARNI HISOBLASH VA TO'LASH

- 5.1. Depozit summasiga foizlar Bankka Depozitga pul mablag'lari kiritilgan kundan keyingi kundan boshlab, Mijozga depozit summasini qaytarishdan yoki boshqa sabablarga ko'ra Mijozning hisobvarag'idan depozit summasini hisobdan chiqarishdan oldingi kungacha hisoblanadi.
- 5.2. Butun oy uchun mazkur oydagi haqiqiy kalendar kunlar soni (365 kunlik bazaviy davr asosida) olinadi. Mijozga hisoblangan foizlar va depozitning asosiy summasini qaytarilishi asosiy depozitni saqlash muddati tugagandan keyingi kunida amalga oshiriladi.
- 5.3. Depozit bo'yicha foizlar har kuni hisoblanadi, Mijoz nomiga ochilgan «to'lov uchun hisoblangan foizlar» subhisobvarag'ida rezervlanadi.
- 5.4. Depozit muddati tugashidan oldin Mijozning talabiga binoan depozit muddatidan oldin qaytarilganda, qayta hisob-kitob qilinadi va bank mahsuloti shartlariga ko'ra, depozit summasi to'lab bo'lingan foizlari chegirib olib qaytariladi.
- 5.5. Depozitning hisoblangan foizlari bo'yicha foizlarni hisoblash va to'lash shartlari Bankning qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.
- 5.6. Foizlar depozit muddati tugashidan oldin har oy to'lanadi. Agar foizlarni to'lash kuni ishlanmaydigan kunga to'g'ri kelsa, foizlar undan keyingi birinchi ish kunida to'lanadi.
- 5.7. Mijozning Bankdagi pul mablag'lariga ta'qiq qo'yilgan taqdirda, ta'qiq qo'yilgan davr uchun foizlar hisoblanadi va Mijoz tomonidan ta'qiq bekor qilinishi uchun tegishli hujjatlar taqdim etilgandan so'ng to'lab beriladi.
- 5.8. Foizlarni to'lash Mijozning Bankda ochilgan joriy hisobvarag'iga amalga oshiriladi. Agar to'lov kuni dam olish/bayram kuniga to'g'ri kelib qolsa, foizlar dam olish/bayram kunidan keyingi birinchi ish kunida to'lanadi.

6. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

- Tizim orqali Depozit mablag'larini to'liq yechib olish to'g'risida Bankka talabnoma bilan chiqish;
- Depozitni mustaqil ravishda tasarruf etish va masofadan boshqarish;
- Bank mahsulotining shartlari bo'yicha savollar tug'ilsa, Bank saytida yoki Bankning Aloqa markaziga yoki Bankning xizmat ko'rsatuvchi xodimiga murojaat qilib, depozit bo'yicha Bank qoidalarini mustaqil ravishda o'rganish.

6.2. Mijoz quyidagi majburiyatlarga ega:

- pul mablag'larini joylashtirishdan oldin mazkur shartnoma shartlari va Bank qoidalari bilan tanishish;

- O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun hujjatlariga Depozit bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish.

- hisobvaraqlarga noto'g'ri kiritilgan va/yoki hisobdan chiqarilgan mablag' aniqlangan taqdirda, bu haqda Bankka mavjud bo'lgan har qanday usulda darhol xabar berish. Noto'g'ri o'tkazilgan pul mablag'larini o'z maqsadlari uchun ishlatmaslik va ularni darhol Bankka qaytarish uchun barcha choralarni ko'rish. Mijoz tomonidan noto'g'ri o'tkazilgan pul mablag'lari noqonuniy ushlab qolingan taqdirda, Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan choralar ko'riladi.

- Depozitni ochish operatsiyasini amalga oshirish paytida tizim ishlamay qolsa yoki texnik nosozlik yuzaga kelsa, Bankka quyidagi telefon raqami orqali xabar berish: 1233.

- Tizimga kirishni ta'minlaydigan, Bank tomonidan berilgan «Login», «Parol»ni himoya qilish va muhofaza qilishni ta'minlash, uchinchi shaxslarga tarqatmaslik va oshkor qilmaslik;

- Xizmat orqali depozit bilan bog'liq barcha operatsiyalarni uchinchi shaxslarning ishtirokisiz va kuzatuvsiz amalga oshirish.

- Telefon raqami o'zgargan taqdirda, 1 (bir) bank kuni ichida Bankni ogohlantirish va yangi telefon raqami haqida ma'lumot berish.

- Xizmat ko'rsatiladigan qurilmaning axborot xavfsizligini mustaqil ravishda ta'minlash.

- Xizmatdan noqonuniy maqsadlarda foydalanmaslik.

6.3. Bank quyidagi huquqlarga ega:

- tegishli davlat organlaridan ijro hujjatlari kelib tushgan taqdirda, Mijozning e'tirozlaridan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda choralar ko'rish (pul mablag'lariga ta'qiq qo'yish, pul mablag'larini akseptsiz hisobdan chiqarish, hisobvaraq bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish va boshqalar),

- muddatli depozit hisobvarag'idan noto'g'ri kiritilgan pul mablag'larini akseptsiz hisobdan chiqarish;

- Mijozning muddatli depozit hisobvarag'idan Bank yangiliklarini, shuningdek amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni Mijozning Tizimda ko'rsatilgan mobil telefon raqamiga SMS xabarlar ko'rinishida yoki ko'rsatilgan elektron pochta manziliga xabarlar sifatida yuborish;

- jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida Bank mijozdan muddatli depozit hisobvarag'i bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlovchi ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishni talab qilishga haqli;

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda muddatli depozit hisobvarag'i va foizlarni hisoblash bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish yoki Mijozga uning hisobvarag'i bo'yicha topshiriqlarini bajarishni rad etish.

6.4. Bank quyidagi majburiyatlarga ega:

- Mijoz tomonidan Shartnoma akseptlangandan so'ng, Mijozning depozit hisobvarag'ini avtomatik ravishda ochish uchun pul mablag'larini hisoblab chiqish;
- muddatli depozit hisobvarag'idan mablag'larni va hisoblangan foizlarni mazkur Shartnomada nazarda tutilgan tartibda va shartlarda Mijozga qaytarish;
- hisobvaraqlardagi mablag'larning saqlanishini va daxlsizligini ta'minlash. Hisobvaraqlardagi mablag'larga ta'qiq qo'yish yoki hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollardagina amalga oshirilishi mumkin.

7. BANK SIRI

7.1. Bank "Bank siri to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq Mijoz to'g'risidagi bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning maxfiylikini va saqlanishini kafolatlaydi.

7.2. Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar Bank tomonidan Mijoz yoki uning vakolatli vakillariga uning so'rovi asosida (mijoz ma'lumotlari to'liq identifikatsiya qilingandan so'ng yozma yoki elektron shaklda) taqdim etilishi mumkin.

7.3. Mijoz to'g'risidagi bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda uchinchi shaxslarga beriladi.

8. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

8.1. Tomonlar mazkur Shartnoma shartlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

8.2. Mijoz mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi sababli yuzaga keladigan har qanday yo'qotishlar yoki boshqa salbiy oqibatlar uchun javobgardir.

8.3. Mijoz o'z shaxsiy ma'lumotlarini xavfsiz ulanishlardan foydalanadigan yoki zarar yetkazuvchi dasturlar va ilovalar tahdidi ostida bo'lgan qurilmaga kiritishda ularning xavfsizligi uchun to'liq javobgardir.

8.4. Masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari orqali hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish maqsadida hisobvaraqlar ochish uchun taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun Mijoz javobgardir.

8.5. Bank Shartnoma shartlarini lozim darajada bajarmaganlik uchun, agar bunday bajarmaslik Mijoz tomonidan Shartnoma shartlarini bajarmaganligi, shu jumladan Bank tomonidan berilgan Tizimga kirishni ta'minlovchi «Login» «Parol»ni himoya qilish va muhofaza etish shartlariga amal qilinmaganligi natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, javobgar bo'lmaydi.

8.6. Mijoz mazkur Shartnoma shartlari bilan tanishmaganligi va (yoki) o'z vaqtida tanishmaganligi sababli Mijoz tomonidan yetkazilgan zarar uchun Bank javobgar bo'lmaydi.

8.7. Bank mazkur Shartnoma shartlarini lozim darajada bajarmaganlik uchun, agar bunday buzilish Bankka bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra yuzaga kelgan bo'lsa, javobgar bo'lmaydi. Bank nazorati doirasi faqat tizimning o'zi ishlashi bilan chegaralanadi va uchinchi shaxslarning aybi bilan yoki davlat yoki sud organlari tomonidan taqiqlar yoki cheklashlar kiritilishi bilan bog'liq nosozliklar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

8.8. Tomonlar mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun, agar bu bajarmaganlik Shartnoma tuzilgandan keyin Tomon na oldindan ko'ra olmaydigan va na oqilona choralar ko'rib bartaraf eta olmaydigan favqulodda holatlar (fors-major) natijasida yuzaga kelgan yengib bo'lmas kuch hodisalari oqibati bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadilar.

9. NIZOLARNI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

9.1. Mazkur Shartnomadan kelib chiqadigan har qanday nizo Mijozning yozma so'rovi asosida tinch yo'l bilan hal qilinadi. Murojaatni ko'rib chiqish muddati va uning mazmuniga qo'yiladigan talablar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

9.2. Agar yuzaga kelgan nizo kelishuv yo'li bilan hal etilmasa, u O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda javobgar joylashgan joydagi sudga ko'rib chiqish uchun yuboriladi..

9.3. Tomonlar bank operatsiyasi jarayonida masofaviy va aloqa kanallari orqali Mijoz tomonidan berilgan tasdiqlar qog'oz hujjatdagi yozma imzo bilan bir xil qonuniy qiymat va kuchga ega ekanligiga rozi bo'ladilar.

9.4. Tomonlar elektron shaklda tuzilgan hujjatlar Mijoz tomonidan imzolangan qog'oz hujjatlar bilan bir xil yuridik kuchga ega ekanligiga rozi bo'ladilar. Shu sababli, elektron shaklda tuzilgan hujjat tomonlar o'rtasida nizolar kelib chiqishi sharti bo'la olmaydi.

10. BOSHQA SHARTLAR

10.1. Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan shartlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

10.2. Mazkur Ommaviy elektron ofertani akseptlash orqali Mijoz Shartnomaning barcha shartlarini so'zsiz qabul qilganligini tasdiqlaydi va mazkur Shartnoma muddatli depozit hisobvarag'iga naqd pulsiz shaklda mablag' kelib tushgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

10.3. Depozitlarning qaytarilishi Bank mol-mulki va aktivlari bilan kafolatlanadi.

10.4. Mazkur Shartnoma depozitga qo'yilgan mablag'lar Mijozning hisobvarag'iga hisoblangan foizlar bilan to'liq to'langanidan keyin o'z yuridik kuchini yo'qotadi.

BANK REKVIZITLARI

a) manzil: Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 30-uy;

b) soliq to'lovchining shaxsiy raqami: 202858483;

d) litsenziya: Markaziy bank tomonidan 2021-yil 25-dekabrda 74-raqam bilan berilgan;

e) sayt: www.ipotekabank.uz.